



## TOVUSHNING FIZIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING, XOSSA VA XUSUSIYATLARINI ASPEKTLARI

*Irgashev Suyundik Uktamovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tibbiyot oliy ta'lif tashkilotlarida Tibbiy va biologik fizika ta'limi sifati va samaradorligini oshirish uchun elektron ishlanmalar (qo'llanmalar) ishlab chiqilgani va undan foydalanib Akustika. Tovushning fizik xususiyatlarini o'rganishning, xossa va xususiyatlarini hamda ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlar tarqalish tezligini aniqlash bayon qilingan va ularning o'quv jarayonida qo'llash tajriba sinov natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Akustika, mexanik to'lqin, ko'ndalang to'lqin, bo'ylama to'lqin, elektron ishlanma (qo'llanma), virtual laboratoriya, aspektlar, texnologiya,

Tovushning fizik xususiyatlarini.

Inavatsion texnologiyalaridan foydalanish tibbiy va biologik fizikaning Akustika. Tovushning fizik xususiyatlari hodisalarini o'rganish, ya'ni tajriba jarayoni kattaliklarini (qiymatlarni) olish mumkin bo'lмаган yoki qiyin bo'lgan laboratoriya ishlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Quyida tibbiy va biologik fizikaning ning «Akustika» bo'limini o'rganish uchun yaratilgan «Tovushning fizik xususiyatlari mavzulari bo'yicha virtual laboratoriylar» nomli elektron ishlanma (qo'llanma)ning imkoniyatlari va xususiyatlarini tavsiflab, «Tovush to'lqinlarning tarqalish tezligini aniqlash» mavzusidagi virtual laboratoriya ishi hamda tovush hodisalari, ya'ni ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlarni o'rganish bo'yicha natijalar tahlili keltirildi. Muloqot oynasining umumiyo'li ko'rinishi 1-rasmida keltirilgan.


Elektron ishlanma (qo'llanma)larning imkoniyatlari: laboratoriya ishini bajarishda bitta oynadan foydalanish; tajribadan olingan kattaliklar asosida absolyut va nisbiy xatoliklarni hisoblash; tajriba bajarilishini baholash va uni bajarilgan sanasida saqlash. Elektron ishlanma (qo'llanma)larning «Tovushning fizik xususiyatlari» mavzusidagi laboratoriya ishini bajarishdagi xususiyatlar:


- to'lqin turini tanlash (ko'ndalang yoki bo'ylama);
- tebranish chastotasini o'zgartirib to'lqinning tarqalishini kuzatish;
- muhit qarshiligini o'zgartirib to'lqinning tarqalishini kuzatish;
- bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning tarqalishida grafik tasvirlarni kuzatish;



- laboratoriya ishini bajarishda (tajribada) aniqlangan kattaliklarni (qiymatlarni) jadvalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish;
- tajribadan olingan kattaliklar asosida absolyut va nisbiy xatoliklarni avtomatik hisoblash;
- berilgan topshiriqlarga javob berish.

O‘qituvchi va talabalarning elektron qo‘llanmalardan foydalanib mavzuni o‘rganish mashg‘ulotlarida vaqt taqsimotini (foizlarda) quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq: tashkiliy qism – 3%, bilimlarni nazorat qilish – 15%, kirish va ko‘rgazmali qism – 10%, talabalar bilan elektron qo‘llanma asosida ishslash (vazifalarni kompyuterda bajarish) – 65%, umumlashtirish, uyga vazifa berish, xu- losalash – 7%. Faollashtiruvchi bosqichda o‘quvchilarda kompyuter savodxonligi rivojlanadi va kompyuterdan foydalanish madaniyati shakllanadi.





Tebranishlar muhitda tarqalish jarayoniga to‘lqin deyladi. Bo‘ylama to‘lqin tarzida tarqalib, inson qulog‘i qabul qiladigan (16 Gts dan 20000 Gts gacha bo‘lgan chastotada) tebranishlarning elastik muhitda tarqalishiga tovush tebranishlari yoki tovush deyladi. Chastota –  $v$ , tezlik –  $v$ , tovushning tebranish davri –  $T$ , to‘lqin uzunligi -  $\lambda$ , tovush to‘lqin energiyasi, Umov vektori –  $M$ , garmonik spektrlar tovushning fizikaviy xarakteristikalaridir. Eshitish sezgisining xarakteristikasi esa balandlik, kattalik va tembrlardir. Tovush balandligi tovush tebranishlarining chastotaga bog‘liq, chastota qancha katta bo‘lsa, tovush shuncha yuqori bo‘ladi. Tovush (to‘lqin) qattiqligi tovush to‘lqin energiyasiga (muhitning tebranishda zarralarning siljish amplitudasiga), energiya oqimining zichligiga (Umov vektoriga) bog‘liq:

$$U = \epsilon v \quad (\text{Umov vektori})$$

Bu formulada  $U$  - tovushning intensivligi yoki kuchi,  $\epsilon$  - energiya oqimining hajmiy zichligi,  $v$  - tovush tezligi. Tovushning kuchi qancha katta bo‘lsa, tovush shunchalik qattiq bo‘ladi. Tembr – bu eshitish sezgisining sifat xarakteristikasi bo‘lib, asosan tovushning garmonik spektri bilan xarakterlanadi. Tovush tezligi temperaturaga bog‘liq, ya’ni temperatura ortishi bilan tovush tezligi ortadi, buni quyidagicha yozish mumkin.

$$v_t = v_0 \sqrt{1 + \alpha t}$$




Bu erda  $\alpha=0,004 \text{ K}^{-1}$  - hajmiy kengayishning termik koeffitsienti,  $V_0$  -  $0^\circ\text{S}$  dagi tovush tezligi,  $U$  holda yuqoridagi formula quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$V_t = V_0 \sqrt{1 + 0.004t}.$$

Berilgan temperaturada tovush tezligini bilgan holda, tovushning  $0^\circ\text{C}$  dagi tezligini topish mumkin.

$$V_0 = \frac{v_t}{\sqrt{1 + 0.004t}}.$$

Berilgan temperaturada tovush tezligini aniqlash, nayda turg‘un to‘lqin hosil bo‘lishida sodir bo‘ladigan akustik rezonans usuli yordamida to‘lqin uzunligini o‘lchash bilan amalga oshiriladi. Tovush generatori, telefon, metall naydan iborat bo‘lgan qurilma yordamida turg‘un to‘lqin hosil qilish mumkin. Nayda turg‘un to‘lqin telefondan tiqinga boradigan to‘g‘ri to‘lqin bilan, tiqindan qaytgan (aks, sado) to‘lqininining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. (1 – rasm)



1-rasm.Turg‘un to‘lqin hosil bo‘lishi.

Bu rasmda T – telefon, C – tayoq bilan birga harakatlanuvchi P – tiqin.

Turg‘un to‘lqin hosil bo‘lishining zaruriy sharti, naydagi havo ustuni va turg‘un to‘lqin uzunligining karrali munosabatda bo‘lishidir. Ya’ni telefondan tiqingacha bo‘lgan masofa – chorak to‘lqin uzunligining toq soniga tenglidir.

$$L = (2n+1) \lambda / 4;$$

Bunda  $n$  - istalgan butun son.

To‘g‘ri va qaytgan to‘lqin kesishgan nuqtalarga tugunlar deyiladi, amplitudasi maksimal bo‘lgan nuqtalarga qabariqlar deyiladi. Qabariqlar amplitudasi ikkilangan bo‘ladi, ya’ni  $2A$  ga teng bo‘ladi.

Shunga asosan turg‘un to‘lqin hosil bo‘lishi shartlarini qanoatlantiruvchi har qanday masofalarda tovush keskin kuchayadi. Bu hodisaga akustik rezonans deyladi. Ikkita qo‘shni nuqtalar, ya’ni qabariqlar orasidagi masofa yarim to‘lqin uzunligiga teng:  $l=\lambda/2$  bunda  $\lambda=2\cdot l$  bo‘ladi.



## VAZIFALAR

1. Tovush generatorini tarmoqqa ulang va kerakli chastotani tanlang(600,800, 1000 va 1200 Hz)
  - 2.Tiqinni telefondan asta sekin siljitib, tayoqda tovushning keskin kuchayish nuqtalarini (qabariqlarini) bo‘r bilan belgilang.
  - 3.Belgilar orasidagi  $l_1$ ;  $l_2$ ;  $l_3$ ; .... masofalarni chizg‘ichda o‘lchab, qiymatlarini jadvalga yozing.
  4. To‘lqin uzunligini quyidagi formula bo‘yicha hisoblang:  $\lambda=2\cdot l$
  5. Berilgan temperaturadagi tovush tezligini  $V_t=\lambda\cdot v$  formula bo‘yicha hisoblang.
  6.  $\bar{v}_t$ ;  $\Delta\bar{v}_t$ ;  $D_t$  kattaliklarni hisoblang.
  7.  $V_t$  ning haqiqiy qiymati:
- $$V_{t_{haq}} = (\bar{v}_t \pm \Delta\bar{v}) \frac{m}{c} \text{ bo‘ladi.}$$
8.  $0^{\circ}\text{C}$  dagi tovush tezligini  $V_0 = \frac{\bar{v}_t}{\sqrt{1+0.004t}}$  formulada hisoblang.
  9. O‘lchash nuqtalarini jadvalga yozing.
  10. Olingan natijani ilovada berilgan 1-jadval bilan solishtiring va xulosa chiqaring

### 1-jadval

| №        | v, Hz | l(m) | $\lambda(m)$ | $V_t(m/s)$ | $\Delta V_t(m/s)$ | D, % |
|----------|-------|------|--------------|------------|-------------------|------|
| 1        |       |      |              |            |                   |      |
| 2        |       |      |              |            |                   |      |
| 3        |       |      |              |            |                   |      |
| 4        |       |      |              |            |                   |      |
| O‘rtacha |       |      |              |            |                   |      |

**Xulosa:** bu kabi laboratoriya ishlarni virtual shakilda tashkil etish, laboratoriya jihozlari etishmasligi sababli natija olish imkonи bo‘lmagan laboratoriya ishlarni o‘tkazish uchun optimal yechimdir. OTM larda laboratoriya ishlarni tashkil qilishda asbob va jihozlar yetishmasligi bilan bog‘liq inqirozini laboratoriya ishlarni shu usullarda tashkillashtirish orqali yechish mumkin. Bu usullar talababalarda ham qiziqish uygo‘tadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Tursunmetov K.A., Sheraliev S.S., MEXANIK TO‘LQINLARNI ELEKTRON IShLANMALAR ASOSIDA O‘QITISHNING ASPEKTLARI «ZAMONAVIY TA’LIM / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» 2016, 4
2. Tursunmetov K.A., Sheraliev S.S., Hamidov V.S. «Mexanik to‘lqinlar» mavzusi bo‘yicha multimediali ma’ru- zalarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. // «Uzluksiz ta’lim», Т., 2010, №4. –89-92-b.
3. Tursunmetov K.A., Sheraliev S.S. Mexanik to‘lqinlarni o‘rganishda elektron ishlanmalardan foydalanish. OO‘M, KHTda aniq va tabiy fanlarning o‘zaro aloqadorlik va uzviylik masalalari bo‘yicha Respublika ilmiy anjuma- ni. – Qarshi, 2014.
4. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika, Darslik. Toshkent, 2005 у.
5. Определение длины звуковой волны. Синин В.Г., «МОУ ШОС» №4, Г. Корсаков 2012 г